

“ TURKIYA SAYLOVING XALQARO MUNOSABATLARDAGI O'RNI VA
AHAMIYATI ”

Turobjonov. M

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti "Xalqaro munosabatlar " fakulteti
1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif 2023-yilning muhim siyosiy voqealaridan biri hisoblangan Turkiya Respublikasida bo'lib o'tgan Prezidentlik saylovi va uning natijalari xususida so'z olib borgan. Turkiya Respublikasida 2023-yil 14-may kuni prezidentlik sayloving 1-bosqichi bo'lib o'tdi. Sayloving 1 - bosqich natijalari Turkiya siyosiy hayotida tub burilish yasadi. Turkiya saylovi 1-bosqichidan so'ng, "Al Jazeera" gazetasi siyosiy tahlilchisi Marvon Bishara va siyosiy tahlilchi Mustafa Gurbuzning tahliliga ko'ra Erdogan bu safar ham saylovda g'alaba qozonishi kerak edi. Tahlil o'z tasdig'ini topdi. Erdoganning yana bir bor hokimiyatda qolishi Turkiyaning ijtimoiy-siyosiy hayotiga qay darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, Erdogan shakllantirgan yangi hukumat va u tomonidan ishlab chiqilgan yangi islohotlarga bog'liq. Ushbu islohotlar Turkiyaning barcha hududlarini qamrab olishi muhim ahamiyatga ega. Maqolada Rajep Tayyip Erdogan shakllantirgan yangi hukumatning "Turkiy Davlatlar Tashkiloti" va Xalqaro munosabatlarga o'zaro ta'siri va pozitsiyasi ham o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Saylov, Rajep Tayyip Erdogan, Kamol Qilichdaro'g'li, "Jumhuriyat xalq partiyasi", "Adolat va Taraqqiyot Partiyasi", "Xalqlarning Demokratik Partiyasi", kurdlar, zilzila, infilatsiya, "Xalq Koalitsiyasi", "Turkiy Davlatlar Tashkiloti".

Rajep Tayyip Erdoganning Turk siyosiy olamiga kirib kelishi. O'z siyosiy faoliyati davomida Turkiyaning ichki va tashqi siyosiy mavqeyi va holatini kuchli potensialga aylantirgan siyosatchi Rajep Tayyip Erdogan Turkiya Respublikasining Janubiy G'arbiy Osiyo davlatlari orasida, nafaqat ushbu hududda balki butun Dunyoda o'z o'rniiga ega bo'lishiga sabab bo'ldi. Biroq Erdogan tomonidan so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar o'z samarasini bermasligi natijasida uning mavqeyi asosan ichki siyosatda pasaydi. Ammo Rossiya va Ukraina o'rtasida bo'layotgan ziddiyatlar natijasida Erdoganning olib borgan tashqi siyosiy masalalar uning Xalqaro munosabatlar maydonidagi mavqeyini yanada kuchaytirdi. Rajep Tayyip Erdogan 1954-yil 26-fevralda kambag'al konservativ musulmon oilasida tug'ilgan. Yoshligidan diniy va dunyoviy ta'lim -tarbiya olgan. Erdogan o'zining ilk siyosiy faoliyatini "Milli Turk Talebe" millatchi talabalar guruhi yig'ilishida faol ishtirok etishdan boshlaydi. Notiqlik san'ati va boshqaruvchilik qobiliyati ham shu uyushma ta'sirida rivojlandi.

o1976-yilda Erdog'an kommunizmga qarshi harakat guruhi hisoblangan "Milliy Turk Talabalar" ittifoqiga qo'shilish orqali siyosat olamiga kirib keldi¹. Erdog'an siyosiy karyerasini partianing yoshlar bo'limi raisi lavozimidan boshladi.

o1994-yil saylovda 25,19 % ovoz to'plab, Istanbul shahriga hokim etib saylandi. 1994-1998-yillar mobaynida Erdog'an Istanbul shahrining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Suv tanqisligi, jamoat transporti muammosini bartaraf etdi. O'zining pragmatik siyosati orqali xalq bilan muloqotni faollashtirdi.

o1997-yil dekabr oyida Siirt shahridagi siyosiy tadbirda Erdog'an XX asr boshidagi pan-turk faoli Ziya Go'kalpning qalamiga mansub she'rni o'qib berishi natijasida, Turkiya sudi tomonidan diniy-irqiy adovatni qo'zg'ashda ayblanib, Turkiya Jinoyat Kodeksining 312/2-moddasiga ko'ra hibsga olindi va o'n oylik qamoq jazosiga hukm etildi. Sud jarayoni Erdog'anning siyosiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatdi. Istanbul hokimi lavozimidan ham voz kechdi. Erdog'an jazoni pul jarimasiga o'tkazishni so'rab murojaat qilgan, biroq jazo muddati to'rt oyga qisqartirilgan (1999-yil 24-martdan 1999-yil 27-iyulgacha).

o2001-yilda Najemittin Erbokan tarafdorlari "Saodat Partiyasi" ni va islohotchilar Abdulla Gul va Erdog'an rahbarligida "Adolat va Taraqqiyot Partiyasi" tashkil etildi. Erdog'an 2003-yildan boshlab siyosiy ta'qiq bekor qilingandan so'ng bosh vazir lavozimini egalladi.

o2014-yilning 1-iyulida Erdog'an "Adolat va Taraqqiyot Partiyasi" nomidan prezidentlikka nomzod sifatida ko'rsatildi. Saylovning 1-bosqichida 51,79 % ovoz bilan Turkiya prezidenti etib saylandi. Erdog'an partiyasiga muxolifat hisoblangan Islom Hamkorlik Tashkiloti sobiq bosh kotibi "Jumhuriyat xalq partiyasi" yetakchisi Ekmeliddin Ihsano'g'li 38,41% ovoz oldi. Kurd tarafdori hisoblangan (HDP) partiyasi yetakchisi Selahittin Demirtosh 9,76 % ovoz to'pladi.

o2017-yil bo'lib o'tgan Konstitutsiyaviy referendum ham, Erdog'an siyosiy vakolatlarini kengaytirdi. Biroq, 2019-yilgi mahalliy saylovlarda hukmron partiya hisoblangan "Adolat va Taraqqiyot Partiyasi" 25 yil ichida birinchi marta Istanbul va Anqarani hamda Turkiyaning 6ta yirik shahridan 5 tasida o'z nazoratidan mahrum bo'ldi. Ushbu mag'lubiyat Erdog'an olib borgan noto'g'ri iqtisodiy islohotlar va iqtisodiy inqirozning kuchaygani, avtoritarizm ta'sirining tobora ortib borayotgani, shuningdek, suriyalik qochqinlar muammosiga hukumatning sust munosabat bildirganligi bilan izohlanadi.

Mahalliy saylovlarda bo'layotgan voqealar ham Erdog'anning uchinchi muddatga prezidentlik kursisiga o'tirishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Chunki saylovlarda asosan yirik shaharlar saylov natijalarini hal qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Biroq Erdog'an uchinchi muddatga saylangan davrdan boshlab inflatsiya va etnik muammolarni bartaraf etmasa hokimiyatda qolish ehtimoli pasayadi. Negaki, Turkiya hududida yashovchi xalqlar etnik jihatdan xilma-xil shakllarga ega. Shu bois ham asosiy e'tibor etnik nizolar va muammolarni bartaraf

etishga qaratilishi lozim. Muhojirlar masalasi ham Turkiya uchun eng o'g'riqli nuqtalardan biri hisoblanadi. Yaqin Sharqda bo'layotgan mojarolar ham Turkiya ichki siyosatiga bevosita ta'sir o'tkazishi mumkin.

Partiyalar o'rtasidagi siyosiy raqobat. Turkiyaning ijtimoiy hayotida ro'y bergan so'nggi hodisalardan keyin "Adolat va Taraqqiyot Partiyasi" siyosiy mavqeyi biroz susaydi. Bu hodisaga asosiy sabab Turkiya iqtisodiyotida inqirozning jadal o'sib borayotganidir. Ushbu partiyaga muxolif bo'lgan "Jumhuriyat xalq partiyasi" o'z siyosiy mavqeyi mustahkamlashga intilmoqda. Biroq ushbu partiyaning raqobatbardosh partiyaga aylanish jarayoni oson kechmadi. Chunki ushbu partiya koalitsiya partiya hisoblanadi. Ya'ni 6 partiyani o'z ichiga olgan "Xalq Koalitsiyasi" partiyasining bir qismi hisoblanadi. Ushbu koalitsiya o'z ichiga "Jumhuriyat xalq partiyasi", "Saodat Partiyasi", o'ng qanot millatchi "Yaxshi partiya", markazchi "Demokratik partiya", shuningdek "Demokratiya va Taraqqiyot Partiyasi" kabi partiyalarni o'z ichiga oladi. Muxolifat majlis qurultoyi 2023-yil 2-mart kuni bo'lib o'tdi va yagona nomzod sifatida "Jumhuriyat xalq partiyasi" yetakchisi Kamol Qilichdarov'g'li e'lon qilindi. Biroq "Yaxshi partiya" yetakchisi Meral Akshener Kamol Qilichdarov'g'lini qo'llab-quvvatlamadi. Sabab esa ikki yetakchi o'rtasidagi ochiq raqobat edi. Ammo qurultoy yakuni ijobiy yakunlandi. Qurultoy yakunida esa 250 sahifalik hujjat imzolandi.

Aslida Kamol Qilichdarov'g'li siyosat maydoniga qanday keldi? 2003-yildan 2014-yilgacha bosh vazir bo'lgan, 2014-yildan boshlab prezidentlik lavozimini egallab kelayotgan Rajep Tayyip Erdogan haqiqatdan ham munosib raqibmi? Kamol Qilichdarov'g'lining siyosat maydoniga kelishi moliya sohasida faoliyat yuritib, so'ngra biroz muddat universitetda dars bergan Qilichdarov'g'li siyosiy karyerasini korrupsiyaga qarshi kurashishdan boshlaydi. Uning hamkasblarining fikriga ko'ra Qilichdarov'g'li tabiatan halol va yumshoq fe'lli bo'lsa ham, qat'iyatli va intizomli siyosatchi hisoblanadi. Uning saylovoldi kompaniyasining asosiy g'oyasi G'arb va AQSH davlatlari bilan yaqinlashuv, Rossiya va Xitoy bilan o'zaro masofani saqlagan holda siyosat olib borish, shuningdek, NATO da o'z ta'sirini va siyosiy qudratini kuchaytirish va "Turkiy Davlatlar Tashkiloti" siyosatini davom ettirishdan iborat. Biroq, Turkiy davlatlarga e'tibor Qilichdarov'g'li siyosiy faoliyati davomida biroz susayadi. Boisi, u asosiy e'tiborni G'arb davlatlari bilan hamkorlik qilishga qaratmoqchi. 2016-yildagi Turkiyada bo'lib o'tgan harbiy to'ntarishga urinishdan so'ng, Kamol Qilichdarov'g'lining siyosiy mavqeyi yanada kuchaydi. Hodisa natijasida prezident Erdogan o'n minglab o'qituvchi va sudyalarini ishdan bo'shatdi. Buning oqibatida, Kamol Qilichdarov'g'li boshchiligidida yuz minglab aholi 2017-yil 12-iyun kuni 450 kilometr masofaga ega bo'lgan Anqaradan Istanbulga "Adolat" marshini boshladilar. 9-iyul kuni Istanbul shahriga aholi yetib keldi. Ushbu yurish natijasida Kamol Qilichdarov'g'li siyosat maydonida ulkan qadam tashladi. Kamol Qilichdarov'g'li "Turk Gandisi" nomiga sazovor bo'ldi. Biroq, uning so'nggi vaqtarda olib borgan ayollar hijob o'ramaslik masalasidagi siyosiy tashviqotlari uning saylovoldi

kompaniyasining inqiroziga sabab bo'lishi mumkin. Chunki Turkiya ijtimoiy hayotiga din o'zining kuchli ta'sirini o'tkazish kuchiga ega.

Erdog'an tomonidan ilgari surilgan asosiy g'oya konservativm tamoyillari asosida qurilgan. Uchinchi marta prezidentlik davrida Erdog'an AQSH va Yevropa davlatlari bilan o'zaro masofani saqlagan holda siyosat olib borish, shuningdek, Turkiy davlatlar va Rossiya bilan hamkorlikni yanada kuchaytirishdan manfaatdordir. Bunday siyosat Erdog'an hokimiyatining ko'p qutbli siyosat olib borishidan dalolat beradi. Ammo Erdog'anga asosiy to'siq bo'layotgan iqtisodiy islohotlarning samara bermayotganligini, ayniqsa turk lirasining qadrsizlanishi Erdog'anga jiddiy xavf solmoqda. Erdog'an 1-bosqichdan avval yutqazishini anglagan holda 450 ming nafar ishchining oylik maoshini 45% ga oshirishi ham Turkiya iqtisodiyotiga jiddiy zarar ko'rsatishi tabiiy. Rajep Tayyip Erdog'an uchinchi muddatni boshqarishda asosan to'g'ri iqtisodiy islohot o'tkazishga qaratishi lozim.

Turkiya ichki siyosatidagi o'zgarishlarning saylovga ta'siri. 2023-yil 6-fevralda Turkiyada sodir bo'lgan zilzila ham Turkiya siyosatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Tabiiy ofat oqibatida Turkiyaning Shaxitkamil va Gaziantep shaharlari yirik talofat ko'rdi. BMT tahiliga ko'ra ushbu tabiiy ofat natijasida Turkiya 100 milliard dollar zarar ko'rdi. Ijtimoiy so'rovlarda qayd etilishicha aholining 34% hukumatni, 26,9 % ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni ayblamoqda. 46,2 % ni tashkil etgan Erdog'an tarafдорлари esa, qurilish kompaniyalari ma'suliyatiga ishonmoqda. BMT matbuot kotibi Luiza Uinston vaziyatni quyidagicha baholadi "Mamlakatning ehtiyojlari juda katta ammo resurslar tanqisdir, ammo hokimiyatga kim kelishidan qat'iy nazar Turkiya hukumati qiyin vaziyatlarni boshdan kechiradi "-deya ta'kidladi. Iqtisodiy inqiroz, liraning qadrsizlanishi va tabiiy ofat natijasida kelib chiqqan 100 milliard dollar zarar Turkiya iqtisodiyotiga jiddiy xavf soladi. Tabiiy ofatdan zarar ko'rgan hududlarda 6 mln ga yaqin saylovchi istiqomat qiladi va bu qatlam o'tkazilayotgan saylovda Erdog'an hukumatini ayblayotgani sababli, ovozlar sonining o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Vaziyatdan foydalangan muxolifat yetakchisi Kamol Qilichdaro'g'li qurilishga korrupsianing aralashgani va hukumatning tizimga e'tiborsizligini sabab bo'lganini da'vo qildi. Ikkinci tur uchun bo'lib o'tadigan saylovda yana bir omil Sinan Og'anning Erdog'anni qo'llab-quvvatlashi ham saylovga ta'sir etdi. "Ota ittifoqi partiyalar "yetakchisi Sinan Og'an Erdog'anni qo'llagani bilan blok tarkibiga kiruvchi "Zafar" partiyasi yetakchisi Unut O'zdag' o'z pozitsiyasini bildirmadi. Saylov esa Erdog'anning foydasiga hal bo'ldi.

Prezident tomonidan shaklantirilgan yangi hukumatning siyosiy pozitsiyasi va xalqaro munosabatlardagi ta'siri. Rajep Tayyip Erdog'an uchinchi muddatga prezidentlik lavozimini egallaganidan so'ng, Erdog'an qasamyod qabul qilish uchun 3-iyun kuni Anqarada joylashgan AK Sarayda prezidentlik vakolatlarini qonuniy ravishda qabul qilib oldi. Qasamyod yakunida Erdog'an yangi hukumat tarkibini e'lon qildi. Yangi hukumat tarkibida Sog'liqni saqlash vaziri va Madaniyat vaziri lavozimlari o'zgarishsiz qoldi. Qolgan barcha vazirlar tarkibi yangilandi. Taniqli

iqtisodchi Mehmet Shimshek Moliya vaziri etib tayinlandi. Ushbu tayinlov yaqin yillarda Turkiya iqtisodiyotida ijobjiy o'zgarishlar sodir bo'lidan dalolat beradi. Chunki Mehmet Shimshek kuchli iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan siyosatchi hisoblanadi. Ya'ni Erdogan tomonidan qo'llab kelinayotgan samarasiz iqtisodiy islohotlar bekor qilinib, yangi islohotlar joriy etilishi mumkin. Shuningdek, Mehmet Shimshek davlatning bozor iqtisodiyotiga ta'sirini kamaytirish tarafdoi. Uzoq yillar davomida Tashqi Ishlar vaziri lavozimida faoliyat yuritib kelayotgan Mevlut Chavusho'g'li o'rniqa Turkiya Milliy Razvedka Tashkiloti rahbari Hakan Fidanning Tashqi Ishlar vaziri etib tayinlanishi Turkiyaning xalqaro maydondagi potensialiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hakan Fidan 13 yillik tajribaga ega bo'lgan kuchli razvedkachi hisoblanadi. Moskva shahrida bo'lib o'tgan rossiyalik, eronlik va suriyalik hamkasblari bilan Suriyadagi mojarolar yuzasidan muzokaralar o'tkazdi. Mudofaa vaziri lavozimida faoliyat yuritib kelayotgan Hulusi Akar o'rniqa Turkiya Qurolli Kuchlari Bosh Shtab boshlig'i Yasar Guler Mudofaa vaziri bo'ldi. Yasar Guler 2019-2020-yillarda Suriya va Iroqdag'i harbiy operatsiyalarga boshchilik qilgan. Vitse-Prezident lavozimini esa Jevdet Yilmaz egalladi. Ushbu lavozimga tayinlanishidan avval Jevdet Yilmaz Taraqqiyot vaziri, shuningdek "Adolat va Taraqqiyot Partiyasi" iqtisodiy masalalar bo'yicha rais o'rinnbosari va Iqtisodiyot vaziridan Bosh vazir o'rinnbosari lavozimlarida faoliyat olib borgan. Shu bilan birga Ichki ishlar vaziri lavozimini Ali Yerlikaya, Ta'lim vaziri Yusuf Tekin, Adliya vaziri Yilmaz Tunch, Oila va ijtimoiy xizmatlar vaziri Mahinur O'zdemir Go'ktosh, Mehnat va ijtimoiy himoya vaziri Vedat Isixon, Atrof-muhit, urbanizatsiya va iqlim o'zgarishi vaziri Mehmet Ozhaseki, Energetika va Tabiiy resurslar vaziri Alparslan Bayraktar, Yoshlar va Sport vaziri Usmon Askin Bak, Madaniyat va turizm vaziri Mehmet Nuri Ersoy, Sog'liqni saqlash vaziri Fahrettin Koja, Sanoat va texnologiya vaziri Mehmet Fatih Kacir, Qishloq va O'rmon xo'jaligi vaziri Ibrohim Yumakli, Savdo vaziri Omer Bolat, Transport va infratuzilma vaziri Abdulqodir Uralo'g'li etib tayinlandilar.

Turkiyaning "Turkiy Davlatlar Tashkiloti" va xalqaro munosabatlardagi o'rni va siyosiy ahamiyati. Erdogan o'zining prezidentlik qasamyodini qabul qilish tadbiriga qator davlat rahbarlarini taklif etdi. Ayniqsa Turkiya "Turkiy davlatlar" tarkibiga kiruvchi mamlakatlarga asosiy e'tiborni qaratmoqda. "Turkiy Davlatlar Tashkiloti" 2021-yilgacha sobiq "Turkiy Kengash" nomi bilan atalgan ushbu tashkilotga 2009-yil 3-oktabrda Ozarbayjonning Naxichevan shahrida asos solingan. Hozirda tashkilotga Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va O'zbekiston davlatlari a'zo hisoblanadi. Shuningdek, Vengriya, Turkmaniston, Shimoliy Kipr kuzatuvchi maqomiga ega bo'lgan davlatlar hisoblanadi. Tashkilotning asosiy maqsadi turkiyzabon mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy-siyosiy aloqalarni mustahkamlash va shu bilan birgalikda jahon siyosatida Turkiy mamlakatlarning siyosiy roli va ahamiyatini oshirish va kuchaytirishdan iborat. Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston, Vengriya kabi davlatlar

Turkiya uchun juda muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan mamlakatlar hisoblanadi. Ayni paytda Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqinlashuv jarayoni jadal rivojlanmoqda. Chunki Markaziy Osiyo strategik jihatdan qulay joyda joylashgan. Bu mintaqaga Rossiya va Xitoy kabi buyuk davlatlarning ta'sirining kuchayishi Turkiya tashqi siyosatiga jiddiy zarar yetkazadi. Biroq Erdogan Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini kuchaytirishga intilsa, Yaqin Sharq nazorat doirasidan chiqib ketishi mumkin. Shuning uchun hozirgi vaziyatda Turkiya Markaziy Osiyo bilan neytral munosabat o'rnatishga harakat qilmoqda. Turkiya asosiy e'tiborini "Turkiy Davlatlar Tashkiloti" ga qaratishidan maqsad o'z siyosiy ta'sir doirasini ushbu davlatlarga kuchli tarzda o'tkazishdan iborat.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Turkiya Respublikasida bo'lib o'tgan prezidentlik sayloving natijalari va yangi hukumat olib borishi lozim bo'lgan siyosiy jarayonlarda Turkiyaning Xalqaro munosabatlardagi ta'siri va obro'sini mustahkamlashdan iborat. Jahon siyosatida o'zining kuchli potensialiga ega bo'lish ham Turkiya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ammo Turkiya o'z ichki siyosiy muammolarni bartaraf etmasdan turib tashqi siyosatda o'z pozitsiyasini mustahkamlay olmaydi. Xalqaro munosabatlarda asosiy siyosiy masalalarni hal etishda muhim o'ringa ega bo'lish uchun Turkiya ichki siyosati bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati ham yuqori bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Phillips D. L. An uncertain ally: Turkey under Erdogan's dictatorship. – Taylor & Francis, 2017.
2. WHO'S WHO IN POLITICS IN TURKEY
<https://tr.boell.org/en/2019/02/27/whos-who-politics-turkey>
3. "Turkish premier is winner of Rafik Hariri Memoria Award" E. 1 March 2010. Archived from the original C on 8 March 2010. Retrieved 1 March 2010.
4. Gall, Carlotta (23 June 2019). "Turkey's President Suffers Stinging Defeat in Istanbul Election Redo" C The New York Times. ISSN 0362-4331 c. Retrieved 20 August 2019.
5. CUMHURBAŞKANI SEÇİMİ İKİNCİ TUR YURT DIŞI SONUÇLARI
<https://secim2023.cnnturk.com/28-mayis-2023-secimleri/cumhurbaskanligi-yurtdisi-secim-sonuclari/>